

**“Olmaliq KMK” AJga 2025 yilning yanvar-mart oylari davomida
(01.01.2025 yildan 31.03.2025 yilgacha) jismoniy va yuridik
shaxslardan kelib tushgan murojaatlarni ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risidagi
H I S O B O T**

Olmaliq kon-metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatiga **2025 yilning yanvar-mart oylari davomida (01.01.2025 yildan 31.03.2025 yilgacha)** jismoniy va yuridik shaxslardan jami **609** ta murojaatlar kelib tushgan, murojaatlar soni 2025-yilning mazkur davri bilan solishtirilganda 2024-yilda kelib tushgan **817** ta murojaatlar soniga nisbatan **208** taga kamaygan.

Murojaatlarning **603** tasi (99,0 %) **jismoniy shaxslardan**, **6** tasi (1,0 %) **yuridik shaxslardan**, **230** tasi **yozma**, **228** tasi **og‘zaki** hamda **151** tasi **elektron** shaklda kelib tushgan.

Tahlillarga ko‘ra, murojaatlarning **290** tasida **ishga joylashish va tiklash**, **86** tasida **ish joyini o‘zgartirish va boshqa mehnat munosabatlari**, **7** tasida **shartnoma shartlarini bajarilishi**, **99** tasida **moddiy yordam ajratish**, **6** tasida **yer ajratish bilan bog‘liq masalalar**, **5** tasida **uy-joy masalalari**, **116** tasida **boshqa** mazmundagi masalalar ko‘tarilgan.

Shuningdek, “Olmaliq KMK” AJ boshqaruv raisi va boshqaruv raisi o‘rinbosarlarining shaxsiy masalalar bo‘yicha qabul kunlari belgilangan. Boshqaruv raisining shaxsiy qabulida **53** nafar, boshqaruv raisi o‘rinbosarlari hamda kombinat Markaziy apparati mutaxassislarining qabullarida **173** nafar fuqarolar qabul qilingan.

“Olmaliq KMK” AJ Jismoniy shaxslar murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘limiga 2025 yilning yanvar-mart oylari davomida (01.01.2025 yildan 31.03.2025 yilgacha) korrupsiya faktlariga doir murojaatlar kelib tushmagan.

Komplaens xizmati boshlig‘i v.v.b.



Sh.X.Jo‘raev

Jismoniy shaxslarning murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘limi boshlig‘i

A.B.Kamilov